



Rasmga qarang. Rasmda qayer tasvirlangan?



Poytaxt shahar, bosh shahar,
Zamonaviy Shosh shahar.



Poytaxtimiz Toshkent – eng qadimgi
shaharlardan biri. Uning tarixiy nomlari
“Choch”, “Shosh” bo‘lgan.

“Toshkent” nomi “Tosh shahar”, “Feruza shahar”
degan ma’noni bildiradi.



Toshkentdagi yangi bog‘

“Yangi O‘zbekiston” bog‘i – O‘zbekistonning eng
yirik bog‘laridan biri bo‘lib, bu bog‘ O‘zbekiston
Mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan bunyod
etilgan. Bog‘ning markaziy qismiga kirar ekansiz, u
yerda balandligi 60 metrlik Mustaqillik monumentini
ko‘rasiz. Uning yuqorisida esa afsonaviy Humo qushi
tasviri mavjud. Agar siz bog‘ni yuqoridan tomosha

qilsangiz, uning ko‘rinishini ulkan daraxtning beshta shoxiga o‘xshatasiz. Naqadar chiroyli-a!

Barpo etilgan bog‘ juda chiroyli va ko‘rkam. Hattoki turli attraksionlar, favvoralar o‘rnatilgan. Atrofga manzarali daraxtlar, butalar va gullar ekilgan. Bog‘ga tashrif buyurgan har bir inson u yerda ko‘plab sayyohlarni uchratishi ham mumkin. E‘tiborlisi shundaki, “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘yish, umumxalq bayramlari, turli tadbirlar o‘tkazish tez fursatlarda an‘anaga aylanib ulgurdi.

Siz ham, albatta, bog‘ga oila a‘zolaringiz bilan birga boring. Ishonamanki, siz ham zamonaviy bog‘ning ko‘rkidan zavqlanasiz va maza qilib hordiq chiqarasiz!



1. Toshkentdagi yangi bog‘ haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Bog‘ning yuqoridan ko‘rinishi nimaga o‘xshaydi?
3. Yurtimizdagi zamonaviy inshootlardan yana qaysilarini bilasiz?
4. Matnni o‘qing. Matnga yana qanday sarlavha qo‘ysa bo‘ladi?



monument – me‘moriy inshoot
ko‘rk – chiroy



Matndan his-hayajon gaplarni topib o‘qing.
“Fursat” so‘ziga ma’nodosh so‘z toping.


fursat

vaqt

Shu so‘z ishtirok etgan gapni topib o‘qing. “Fursat” so‘zini ma’nodosh so‘ziga o‘zgartirib qayta o‘qing. Nimani kuzatdingiz? Fikringizni tushuntiring.



Nukusda joylashgan
“Vatanpavarlar bog'i”



Namangan shahridagi “Zahiriddin
Muhammad Bobur” nomli madaniyat
va istirohat bog'i



Farg'onadagi “Ahmad al-Farg'oniy”
nomidagi oromgoh



Xorazm viloyati Hazorasp
shaharchasidagi “Yoshlar bog'i”



Fikrni davom ettiring.

Vatanim obod bo'lishi uchun men...



Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
Vatanimizning qiziqarli joylari haqida ma'lumotlar
to'plang.

UO'K 808.545(075.3)
KBK 74.202.5ya72
A 38

U.B.Aydarova
O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik. II qism. / **U.B.Aydarova** – Toshkent:
"Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

Sh.Y.Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M.I.Xo'jayeva – Toshkent shahridagi 142-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Yodda tuting



Guruh bo'lib ishlang



Savollarga javob bering



Diqqat bilan o'qing



Izohli lug'at



Tinglang



Bu qiziq



Topshiriqni bajaring



Uyga vazifa

Aziz o'quvchi!

Kitob o'qishda hikmat ko'p. Keng dunyoqarash va bilimga ega bo'lishda kitobning ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Kitob o'qish aqlni charxlaydi, so'z boyligini oshiradi, xotirani mustahkamlaydi, tasavvurni kengaytiradi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi va insonlarni yaxshilik qilishga undaydi.

Qo'lingizdagi ushbu kitob sizga chin ma'noda do'stdir. Darslikda berilgan hikoyalar, she'rlar, ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan parchalar, xalq og'zaki ijodi namunalari sizning tevarak-atrof haqidagi bilimlaringizni kengaytirishga yordam beradi.

Ushbu darslik bilim cho'qqilarini egallashda yo'lingizni yorituvchi mayoq bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Yangi bilimlar sari olg'a!

Omad yor bo'lsin!

